

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGINING
QARORI**

**AXBOROTDAN FOYDALANUVCHILARNING DAVLAT HOKIMIYATI VA
BOSHQARUVI ORGANLARINING OCHIQ HAY’AT MAJLISLARIDA HOZIR
BO‘LISHI TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NAMUNAVIY NIZOMNI TASDIQLASH
TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 22-dekabrda 2742-son bilan
davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan]**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi **Qonuni** hamda Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 6-noyabrdagi 320-son “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ko‘rish to‘g‘risida”gi **qaroriga** muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi qaror qiladi:

1. Axborotdan foydalanuvchilarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay‘at majlislarida hozir bo‘lishi tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri X. MIRZAXIDOV

Toshkent sh.,
2015-yil 25-noyabr,
140-mh-son

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi bosh direktori A. YUNUSOV

Toshkent sh.,
2015-yil 25-noyabr,
05-son

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda
O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining 2015-yil 25-noyabrdagi 140-mh va 05-son **qaroriga**
ILOVA

**Axborotdan foydalanuvchilarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq
hay‘at majlislarida hozir bo‘lishi tartibi to‘g‘risidagi**

NAMUNAVIY NIZOM

Mazkur Namunaviy nizom “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq, axborotdan foydalanuvchilarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay‘at majlislarida hozir bo‘lishi tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining **7-moddasiga** asosan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot izlashni amalga oshirayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs axborotdan foydalanuvchi hisoblanadi.

2. Mazkur Namunaviy nizom talablari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ochiq hay‘at majlisida ishtirok etish uchun taklif etilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari:

mazkur Namunaviy nizom asosida axborotdan foydalanuvchilarning ochiq hay'at majlislarida hozir bo'lishi tartibini belgilashi;

ochiq hay'at majlislarida axborotdan foydalanuvchilarning hozir bo'lishi uchun sharoitlar yaratishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

4. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hay'at majlislari ochiq tarzda o'tkaziladi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(4-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

5. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari axborotdan foydalanuvchilarning tanishib chiqishlari uchun binoning hamma kirishi mumkin bo'lgan xonalarida va (yoki) maxsus ajratilgan joylarida ochiq hay'at majlislarini o'tkazish rejalari, shu jumladan majlislarning kun tartibi loyihalari, ular o'tkaziladigan sana, joy va vaqt hamda boshqa zarur axborotlar axborot stendlari va (yoki) shunday maqsad uchun mo'ljallangan texnik vositalarga majlis o'tkazilishidan kamida uch kun oldin joylashtirishlari shart.

2-bob. Axborotdan foydalanuvchilarning ochiq hay'at majlislarida hozir bo'lishi

6. Axborotdan foydalanuvchi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay'at majlislarida hozir bo'lish uchun tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organiga so'rov bilan murojaat qiladi. So'rov "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasida belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim.

Axborotdan foydalanuvchining identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilmagan so'rovlar anonim hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi.

7. So'rov kelib tushgan kuni u tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi tomonidan alohida maxsus jurnalda ro'yxatga olinadi va zudlik bilan ko'rib chiqiladi. Mazkur jurnal hay'at mas'ul kotibi tomonidan yuritiladi.

8. So'rovga asosan hay'at mas'ul kotibi axborotdan foydalanuvchini ochiq hay'at majlisida ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritadi hamda bu haqda axborotdan foydalanuvchiga ma'lum qiladi. Ochiq hay'at majlisining o'tkazilish sanasi, vaqti yoki joyi o'zgargan taqdirda, bu haqda axborotdan foydalanuvchiga ma'lum qilinadi.

9. Axborotdan foydalanuvchilar ochiq hay'at majlisiga shaxsini tasdiqlovchi hujjati asosida kiritiladi.

10. Axborotdan foydalanuvchi ochiq hay'at majlisiga kelmagan taqdirda, hay'at mas'ul kotibi tomonidan bu haqda maxsus jurnalga yozib qo'yiladi.

11. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z imkoniyatlaridan hamda axborotdan foydalanuvchilar sonidan kelib chiqib, ochiq hay'at majlisi o'tkaziladigan zalda axborotdan foydalanuvchilar uchun joy tayyorlaydi. Axborotdan foydalanuvchilar ochiq hay'at majlisi o'tkaziladigan zalga maxsus jurnalda qayd etish ketma-ketligi asosida joylashtiriladi.

Axborotdan foydalanuvchilar sonining ko'pligi sababli, ularni ochiq hay'at majlisi o'tkazilayotgan zalga joylashtirish imkoni bo'lmagan taqdirda, ular ochiq hay'at majlisining borishini video tasvir orqali moneliksiz kuzatib borishlari mumkin bo'lgan xonaga joylashtirilishi mumkin.

12. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, axborotdan foydalanuvchilar ochiq hay'at majlisining borishini video tasvir orqali moneliksiz kuzatib borishlari mumkin bo'lgan alohida xona jihozlab qo'yilishi mumkin.

13. Axborotdan foydalanuvchilar ochiq hay'at majlisi boshlangunga qadar belgilangan joyga yetib kelishi, ro'yxatdan o'tishi va belgilangan joyga o'tirishi lozim. Axborotdan foydalanuvchilar raislik qiluvchi tomonidan majlis boshlanganligi e'lon qilingandan so'ng kelgan taqdirda, kechikib kelgan hisoblanadi va hay'at majlisiga qo'yilmaydi.

14. Axborotdan foydalanuvchi tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan ochiq hay'at majlisining reglamentida belgilangan tartibda majlisda hay'at a'zolariga savollar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

15. Axborotdan foydalanuvchi tomonidan hay'at majlislari davomida hay'at majlisi muhokamasiga taalluqli bo'lmagan va ushbu majlisda muhokama qilinmagan masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilgan yoki savollar bilan murojaat etilgan taqdirda, unga mazkur masala bo'yicha axborot olish tartibi tushuntiriladi.

16. Axborotdan foydalanuvchi hay'at majlisi o'tkazilayotgan vaqtda tartibni buzmasligi shart. Axborotdan foydalanuvchi majlis o'tkazilayotgan vaqtda tartibni buzgan taqdirda, raislik qiluvchi tomonidan ogohlantiriladi.

Axborotdan foydalanuvchi tartibni takroran buzgan taqdirda, u raislik qiluvchi tomonidan majlis o'tkazilayotgan zaldan chiqarib yuboriladi. Mazkur holat yuzasidan hay'at mas'ul kotibi dalolatnoma tuzadi va dalolatnoma raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

17. Axborotdan foydalanuvchilarga ochiq hay'at majlisini fotosuratga, video tasvirga olishga, ovoz yozish vositalaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

18. Hay'at majlisi bayonnomasida ochiq hay'at majlislarida hozir bo'lgan axborotdan foydalanuvchilarning ishtiroki haqida tegishli ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

3-bob. Yakuniy qoida

19. Mazkur Namunaviy nizom O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamda Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti bilan kelishilgan.

**O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Kengashi raisi A.
KARIMOV**

2015-yil 25-noyabr

**Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti direktori G.
ABDUKARIMOV**

2015-yil 25-noyabr

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 51-son, 637-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)